

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar

bo‘yicha prorektori

G. Abduraxmanova



“ ”

2026 yil

08.00.02 - “MAKROIQTISODIYOT”

ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni

D A S T U R I

TOSHKENT - 2026

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2026 yil "28.08" dagi "1" - sonli Kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasining 2026 yil "____" ____ dagi "____" - sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



B. Mamaraximov

Tuzuvchilar:

B.E. Mamaraximov	TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
V.A. Bahriddinov	TDIU, Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasini dotsenti, PhD

Taqrizchilar:

Q.Q.Mambetjanov	O'zMU, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Salimov	TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini professori, iqtisodiyot fanlari doktori

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotida transformatsiya va institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investitsion va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash hamda muvozanatlashgan pul-kredit siyosatini amalga oshirish. Pul-kredit, fiskal va tashqi savdo siyosatlarini o'zaro muvofiqlashtirish hamda tovar va xizmatlar bozorida raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlarni davom ettirish orqali 2030 yilga borib yillik inflyatsiyani 5-6 foiz darajasida ta'minlash masalalari hozirgi kundagi dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda. Mamlakatlarning makroiqtisodiy barqarorligini mustaxkamlash va yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash hamda hududlarni jadal rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.¹

Bu faoliyatni ta'minlashda davlat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish hamda aholi turmish darajasini yaxshilash, yalpi talab va yalpi taklif muvozanatlarini saqlagan holda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni barqaror holatda saqlash talab qilinadi. Bu borada, "Makroiqtisodiyot" ixtisosligi iqtisodiyotni bir butunligicha o'rganadigan ixtisoslik ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Davlat o'zining makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashda asosiy ikkita siyosatlarning instrumentlaridan keng foydalangan holda erishiga harakat qiladi. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan, inson kapitali, tovarlar va pul bozorlarining muvozanatiga erishish, monetar va fiskal siyosatlarini muvofiqlashtirish, tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladigan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

“Makroiqtisodiyot” ixtisosligi - yalpi ishlab chiqarishning barqaror o‘sishini, resurslarning to‘liq bandligini, inflyatsiyaning past sur‘atlarini va to‘lov balansining muvozanatini ta‘minlash orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning hamda inklyuziv rivojlanishni ta‘minlovchi soha hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, mamlakatning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda, davlat xususiy sheriklik mexanizmi qamrov darajasini oshirishda, eksportga yo‘naltirilgan faol iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va mamlakat fiskal siyosatining aniq me‘yorlarini ishlab chiqishda, iqtisodiyotning real sektorini rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan fiskal siyosat qoidalari va byudjet xarajatlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqishda makroiqtisodiy institutlarni mustahkamlash, aholini ijtimoiy himoya qilishning samarali mexanizmini joriy etish, davlat boshqaruvi tizimi samaradorligini oshirish, ekologiya va resurslarni tejash siyosatini olib borish kabi institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali erishish nazarda tutilgan.

Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida o‘zgarib turuvchi raqobat muhiti va bozor sharoitlarini ilg‘ab olish, ularning mohiyati hamda qonuniyatlarini chuqur tahlil qilishda ekonometrik usullar va modellardan foydalanish yordamida makroiqtisodiy indikatorlarni prognozlash, ko‘p variantli qarorlardan muqobil qarorni tanlash, tavakkalchilik va noaniqlik sharoitida optimal iqtisodiy qarorlar qabul qilish, keyinchalik bu qarorlar bajarilishini kompyuter progrmmalari orqali monitoring qilish masalalarining nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganishda ekonometrik modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dasturda qo‘yilgan mavzu va masalalar 08.00.02-“Makroiqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha talabgorlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki shu sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo‘yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

1-mavzu. Makroiqtisodiy asoslar

Iqtisodiyot tushunchasi. Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari: "Kene jadvali", V. Leontyevning tarmoqlararo balansi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi. Keyns nazariyasining mohiyati. Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo - makroiqtisodiyot sub'yektlari sifatida. Yopiq va ochiq iqtisodiyot. Makroiqtisodiyot usullari. Agregatlashning afzalliklari va kamchiliklari. Makroiqtisodiy modellar. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar. Doiraviy aylanish modeli. "Daromadlar-xarajatlar" va "resurslar-mahsulotlar" oqimi. Qarama-qarshi oqimlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi sabablari. "Oqimdan chetga chiqish" va "chetdan oqimga qo'shilish"lar. Makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari.

2-mavzu. Iqtisodiy faoliyat natijalarini o'lchash

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichining mohiyati. Rezident. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. Bozor baholari. YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Qo'shilgan qiymat, bir qiymatni ikki bor hisobga olishni istisno etish. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Shaxsiy iste'mol xarajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlarni va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish hamda yakuniy iste'molga ko'ra tarkibi. YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi. Yalpi milliy daromad. Sof ichki mahsulot. Sof milliy daromad. Shaxsiy daromad. Shaxsiy tasarrufdagi daromad. Iste'mol. Jamg'arish. Yalpi milliy tasarrufdagi daromad. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar. Daromadlar va xarajatlar tengligi. Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Xususiylar, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Nominal va real YaIM. Baholar indekslari. YaIM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YaIMni hisoblashdagi qiyinchiliklar.

3-mavzu. Umumiy makroiqtisodiy muvozanat: yalpi talab - yalpi taklif modeli

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Baho omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizig'i trayektoriyasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab

o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya xarajatlaridagi, davlat xarajatlaridagi va sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar bahosining o'zgarishi. Unumdorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. Yalpi taklifning klassik modeli. Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'iyligi. Baholar o'zgarishining mehnat bozoriga ta'siri. AS egri chizig'ining vertikaligi. AS egri chizig'ining ishlab chiqarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan qat'iyligi. Real kattaliklarning nisbatan o'zgaruvchanligi. Yalpi talab ta'sirida yalpi taklif egri chizig'idagi siljishlar. Baholarning muvozanatli darajasi. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi. Valrasning umumiy muvozanat tenglamasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi. Talab shoklari. Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o'zgartirilishi.

4-mavzu. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi

Akselerator mul'tiplikatori. Rag'batlantiruvchi pul-kredit siyosati sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosat sharoitida uzoq muddatli muvozanatga o'tish jarayoni. Real iqtisodiy davrlar nazariyasi. "Real yalpi talab - real yalpi taklif" modelidagi davriy tebranishlar. Mehnat taklifidagi vaqtincha almashtirish. Soliq-byudjet siyosatidagi o'zgarishlar. Ishlab chiqarish texnologiyasida keskin o'zgarishlar. Mehnat taklifining mikroiqtisodiy tahlili va texnologiyaning keskin o'zgarishi oqibatlari. Real iqtisodiy davr modeli. Real iqtisodiy davr nazariyasi bo'yicha munozaralar. Daromadning o'zgarish trayektoriyasi. Divergent, konvergent va tsiklik tebranishlar. Yalpi talabning dinamik funktsiyasi. Yalpi taklifning dinamik funktsiyasi. Yalpi taklif egri chizig'i. Yalpi talab egri chizig'i. Mehnat taklifida vaqtincha almashtirishning samarasi. Mehnatning vaqtincha nisbiy narxi. Texnologik shoklar. Kalibrlash.

5-mavzu. Lukas modeli: o'zgarmas kattaliklar va nomukammal ma'lumotlarga ega iqtisodiyot

Qisqa muddatli yalpi taklif modellari. O'zgarmas (qattiq) ish haqi modeli. Ishchilarning noto'g'ri tushunchalari modeli. Nomukammal

ma'lumotlar modeli. O'zgarmas (qattiq) narx modeli. Real ish haqining davriy tebranishlari. Filips egri chizig'i. Inflyatsiya va ishsizlikning o'zaro bog'liqligi. Filips egri chizig'i va yalpi taklif. Iqtisodiy siyosatning oqibatlari. Inflyatsiyaga qarshi kurashda yo'qotishlar va natijalar nisbati. Lukas tanqidi. Kaplin-Spalber modeli. Yalpi taklifga zamonaviy qarashlar. Menyu narxi va yalpi talabning tashqi ta'siri. Narxlar va ish haqining kechikishi. Retsessiya muvofiqlashtirishning yetishmasligi sifatida. Gisterezis (uzilish) gipotezasi. Real ish haqining kontratsiklik xususiyati. Real ish haqining protsiklik xususiyati. Real ish haqining atsiklik xususiyati.

6-mavzu. Iqtisodiy sikllar

Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida enyergoresurslar narxlarining o'zgarishi. Tabiat hodisalari. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning tartibga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishning baynalminallashuvi ta'siri.

7-mavzu. Inflyatsiya va ishsizlik

Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiya sur'ati. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi. Iqtisodiyotdagi monopolizm darajasi. Davlat xarajatlari. Inflyatsion soliq. Inflyatsiyaning sur'atlariga ko'ra turlari. Talab inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Inflyatsion kutish. Inflyatsiyaning kritik nuqtasi. Xarajatlar inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Firmalar monopolizmi va kasaba uyushmalari monopolizmi. Xomashyo va energiya baholarining o'sishi. Talab va taklif inflyatsiyasining qo'shilishi modeli. Inflyatsion spiral. Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Inflyatsiya va foiz stavkalari. Fisher samarasi. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i. Inflyatsiya sur'ati va ishsizlik darajasi o'rtasidagi optimal mutanosiblik. "Karaxt qilib davolash" va gradualizm. Adaptatsiya siyosati. Baholar va daromadlar siyosati. Inflyatsiyani targetlash.

Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha kontsepsiyalari. A. Piguning neoklassik kontsepsiyasi. Real ish haqi, ishchi kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha kontsepsiyasi. Bandlilik multiplikatori. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potentsial va haqiqiy YaIM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Oukun qonuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari. Tabiiy ishsizlik darajasi. Real ish haqining qat'iyligi (o'zgarmasligi) va ishsizlik kutilmalari. Shapiro-Stiglitz modeli. Bandlik darajasi. Ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketish darajasi. Ishsizlik nafaqasi. Real ish haqining qat'iyligi. Ish haqining samarali stavkalari. Muvozanatdan yuqori samarali ish haqi. Qayta ishga joylashish imkoniyati.

8-mavzu. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'rni. Iste'mol funksiyasining algebraik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari.

Iste'molga (ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MRS) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. "Kuznets topishmog'i". "Permanent daromad" kontsepsiyasi. "Hayot davri" kontsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasida iste'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

Investitsiya tovarlariga talabning yalpi talabdagi o'rni. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koeffitsienti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar. Akselerator modeli. To'liq investitsiya funksiyasi. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

9-mavzu. Umumiy iqtisodiy muvozanatning neoklassik modeli

Resurslar bozorida muvozanat. Milliy daromadni taqsimlashning neoklassik nazariyasi. Ish haqi real miqdorini oshirishning individual mehnat taklifiga ta'siri. Soliq-byudjet siyosatining muvozanatga ta'siri. Investitsion talab o'zgarishining muvozanatga ta'siri. Ish haqining real

stavkasi. Kapital narxining real ijarasi. Iqtisodiy foyda. Iste'mol funksiyasi. Investitsiya funksiyasi. Iste'molga chegaralangan moyillik. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Xususiy jamg'armalar. Jamoat (davlat) jamg'armalari. Milliy jamg'armalar. Soliq-byudjet siyosati.

10-mavzu. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi

Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. Investitsiyalash va jamg'arish rejalarining turlicha ekanligi.

"Daromadlar - xarajatlar" modeli - Keyns xochi. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar - moddiy zahiralarining rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Zaxiralarning o'zgarishi. Avtonom xarajatlar dinamikasi va uning ta'sirida muvozanatli YaIM hajmining o'zgarishi. Multiplikator samarasi. Avtonom xarajatlarning multiplikatsiyasi mexanizmi. Iste'molga chegaraviy moyillik va multiplikatsiya samarasi. Multiplikator formulasi. Retsessiya va inflyatsiyaga xos uzilish. Tejamkorlik paradoksi (taajjubi). Jamg'armalar oshirilishining iste'mol va yalpi talab hajmlariga ta'siri.

11-mavzu. Davlat byudjeti. Soliqlar

Davlat byudjetining mohiyati, tarkibi va funktsiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish. Innovatsion taraqqiyotini rag'batlantirish. Pul mablag'larining markazlashgan fondlarini tashkil etish va foydalanilishi ustidan nazorat. Davlat byudjeti daromadi. Davlat nobyudjet fondlari. Konsolidatsiyalashgan byudjet. Soliqlar. Nobyudjet to'lovlari. Soliqlarning turlari, funktsiyalari. Davlat byudjeti daromadlarining soliqlar turlari bo'yicha tarkibi. Soliq siyosati. Soliqqa tortish mezonlari. Adolatlilik. Samaradorlilik. To'lovga qodirlilik. Soliq yuki. Laffer egri chizig'i. Chegaraviy soliq stavkasi. Davlat byudjeti xarajatlari. Davlatning iqtisodiyotda ishtiroki darajasi. Vagner qonuni. Ne'matlarni iste'mol qilish jarayonidagi tashqi samaralar. Ijobiy va salbiy samaralar. Byudjet taqchilligi. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi.

12-mavzu. Byudjet-soliq siyosati

Byudjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Balanslashgan byudjet multiplikatori. Soliqlarning kamaytirilishi samarasi va davlat xarajatlarining oshirilishi samarasi. Diskret fiskal siyosat. Davlat byudjeti taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transfertlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat byudjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash usullari. Taqchillikni monetlashtirish va Oliver-Tanzi samarasi. Davlat qarzi o'sishining iqtisodiy oqibatlari: kapital zaxiralarining kamayishi, daromadlar miqdoridagi tengsizlik, iqtisodiy rag'batlarning zaiflashuvi, foiz stavkasining ko'tarilishi va mamlakat ishlab chiqarish potentsialining pasayishi. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

13-mavzu. Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat

Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Kredit multiplikatsiyasi. Depozitlarni majburiy zaxiralash normasi. Majburiy va ortiqcha zaxiralar. Bank multiplikatori. Pul taklifining qisqartirilgan modeli. Pullarning depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishi, deponentlash koeffitsienti. Pul bazasi. Pul multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Markaziy bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari. Nazorat qilish imkoniyatlarini cheklovchi omillar. Pul taklifi. Baholar darajasi qayd qilingan va daromadlarning belgilangan darajasi sharoitida pul bozorida qisqa muddatli muvozanat. Foiz stavkasi va pul massasining muvozanatli darajalari o'zgarishiga daromadlar darajasi va pul taklifi o'zgarishining ta'siri. Pulning likvidliligi egri chizig'i (LM)- Xansen modeli. Keynscha pul siyosatining mohiyati. Likvidlilik tuzog'i. Likvidlilik tuzog'i sharoitida pul siyosatining samarasizligi. Pul bozorida uzoq muddatli muvozanat. Pul massasining ko'payishi va yalpi taklifning oshishi, real kassa qoldiqlari samarasi, M. Fridmenning monetar qoidasi. Pul taklifi, milliy daromad va kutilayotgan inflyatsiyaning uzoq muddatli o'sish sur'atlari.

14-mavzu. Bank tizimi. Pul-kredit siyosati

Bank tizimining tarkibi. Markaziy bank va tijorat banklarining funktsiyalari. Banklarning asosiy operatsiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljallar. Majburiy zahira normasi. Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi). Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qayta sotib olish to'g'risida kelishuv (REPO). Qat'iy va yumshoq pul kredit siyosati. Pul - kredit siyosatining ta'sirini ishlab chiqarish hajmiga yetkazish mexanizmi. Yetkazish mexanizmidagi buzilishlar sabablari va oqibatlari. YaIMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ko'zda tutilmagan salbiy samaralari. Pul-kredit va byudjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

15-mavzu. IS-LM modeli

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Ivestitsiya tovarlariga talabning o'ziga xos xususiyatlari, samarali talab. Modelning asosiy o'zgaruvchilari va tenglamalari. Tovarlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining yotiqqligi. IS egri chizig'ining tenglamasi. IS egri chizig'i siljishlarini belgilovchi omillar. Pul bozoridagi muvozanat. LM egri chizig'i. Egri chiziqning yotiqqligi. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontali, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarida multiplikator samarasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. LM egri chizig'ining algebrik natijasi. LM egri chizig'i siljishlari. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. Baholar darajasi pasayishi natijasida ikki bozor tizimida muvozanatning o'zgarishi. IS-LM modelida byudjet soliq siyosati. Davlat xarajatlari va soliq stavkalarining o'zgartirilishi. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Likvidlilik tuzog'i. Investitsiya tuzog'i. Baholar o'zgarishi sharoitida rag'batlantiruvchi fiskal va pul-kredit siyosati. Modelda qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanat.

16-mavzu. Robert Solou modeli va endogen o'sish

Iqtisodiy o'sish: ba'zi muhim faktlar. Solou modeli. Model tavsifi. Jamg'arma normasi o'zgarishining ta'siri. Barqaror holatlarni taqqoslash.

Oltin qoida. Iqtisodiy o'sish manbalarini hisoblash. Solouning qoldig'i. Solou modelining kamchiliklari va ularni bartaraf etish usullari. Kapitalning ortib boruvchi intensivligi. Aktivlarning ortib borishi. Texnologik o'sish sur'ati. Iste'molning o'sish sur'ati. Daromadning dastlabki o'sish sur'ati. Mehnat unumdorligi. Doimiy samaradorlik bilan mehnat unumdorligi. Doimiy samaradorlik bilan mehnatning kapital bilan qurollanganligi. Mehnatni tejaydigan texnologik taraqqiyot. Oltin qoidaga mos keladigan barqaror holatga o'tish. Omillarning umumiy unumdorligi. Kapital bilan qurollanganlikning (investitsiyalarning kritik qiymati) barqaror darajasini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar. Endogen ilmiy va texnologik taraqqiyot modellari.

O'sishning yangi nazariyasi (endogen o'sish). Tadqiqot va ishlanmalar (R&D) modellari. Kapitalsiz model. Bilimlarni to'plash modellarida endogen jamg'armalar. Bilimlarni to'plash modellari va o'sish nazariyasining markaziy muammolari. Mamlakatlararo daromadlardagi tafovutlar. Inson kapitali bilan kengaytirilgan Solou modeli. Empirik tadqiqot: Daromadlar o'rtasidagi turli-tuman farqlarni tushuntirish. Ijtimoiy infratuzilma. Ishlab chiqarish, himoya va qaroqchilik modeli. O'sish sur'atlaridagi farqlar.

17-mavzu. Xalqaro savdo nazariyasi. Tashqi savdo siyosati

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. A. Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rin almashtirish xarajatlari doimiylik shartlari. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqlari. To'liq ixtisoslashish. O'rin almashtirish xarajatlarining ortib borishi. Qisman ixtisoslashishdan maksimal manfaat ko'rish. Xeksher-Olin nazariyasi. Mamlakatda va tashqi davlatlarda omillar o'rtasidagi nisbat darajasi. "Leontyev paradoksi (taajjubi)". M Porter nazariyasi. "Texnologik uzilish" nazariyasi. Jahon bozorida talab va taklif. Muvozanatli baho. Manfaatlarning taqsimlanishi.

Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Tarif va notarif usullari. Import tariflari. Tariflarning baholar darajasi, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Davlat ko'rgan yutuq. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Ta'riflarni yoqlovchi hamda ularga qarshi fikrlar. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlilik va davlat daromadlarining o'sishi. Dampingdan himoya. Resurslarni raqobatbardosh bo'lmagan sohalarga yo'naltirish. "Optimal tarif". Ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalar. Tarifga nisbatan afzalliklari, kamchiliklari va qo'llash

muammolari. Eksportga bojxona bojlari: qo'llashdan kutilgan maqsadlar, aholi turmush darajasi, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Eksportni «ixtiyoriy» cheklash: mohiyati va qo'llanishining iqtisodiy natijalari. Eksport subsidiyalari va kompensatsiyalovchi import bojlari. Import kvotalari. Kvotalashning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Import litsenziyalarini taqsimlash uslublari.

18-mavzu. To'lov balansi. Valyuta kursi

To'lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari. Iqtisodiy hudud. Rezident. Operatsiyalar bahosi. Tashqi savdo balansi. Joriy operatsiyalar balansi. Tovarlar eksporti va importi. Omildan olingan daromadlar. eksportga va importga o'xshash operatsiyalar. Sof joriy transfertlar. Joriy operatsiyalar balansi qoldig'i va uni makroiqtisodiy tartibga solish. Kapital harakati va moliyaviy operatsiyalar balansi. Aktivlarni sotish va sotib olish. To'lov balansi tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlik. Ichki va tashqi balans. To'lov balansi tahlili. To'lov balansi taqchilligi. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish.

Valyuta bozori. Valyuta ayirboshlash zarurati. Chet el valyutasiga talab. Chet el valyutasini taklif etish. Chyet el valyutasiga talab va uni taklif etishning kichik mamlakat modeli. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Valyuta kursi. To'g'ri, bilvosita va teskari kotirovka. Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kursi. Valyutaning qadrsizlanishi va qimmatlashishi. Devalvatsiya va revalvatsiya. Nominal valyuta kursi. Real va real samarali valyuta kurslari. Xarid qobiliyati pariteti. Nominal va real valyuta kurslarining uzoq muddatli dinamikasi. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillar: foiz stavkalarining o'zgartirilishi, ishlab chiqarishning real hajmlari, inflyatsiya, hukumat siyosati, savdo balansi, joriy operatsiyalar balansi. Muvozanatli valyuta kursi. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli valyuta kursiga ta'siri.

19-mavzu. Ochiq iqtisodiyot

Ochiq iqtisodiyotdagi milliy daromad. To'lov balansi. Deviz kursi. Nominal ayirboshlash kursi. Real ayirboshlash kursi. Xarid qobiliyati pariteti. Tuzatilgan foiz pariteti. Tartibga solinmagan foiz pariteti. Kichik ochiq iqtisodiyot. Tashqi savdo cheklovlari. Deval'vatsiya. Kapital hisobi va joriy operatsiyalar hisobi. Valyuta kurslari. Mandell - Fleming modeli. Suzuvchi kurs. Suzuvchi kurs sharoitida soliq-byudjet siyosati, pul-kredit

siyosati, tashqi savdo siyosati. Qayd etilgan ayirboshlash kursi sharoitida soliq-byudjet siyosati, pul-kredit siyosati, tashqi savdo siyosati. Mandell - Fleming modelining algebraik ko'rinishi (chiziqli bog'liqliklar mavjud holatda). Mandell - Fleming modelida iqtisodiy siyosat mul'tiplikatorlari. Valyuta bozoridagi muvozanat. Ichki foiz stavkasi global darajadan past. Ichki foiz stavkasi global darajadan yuqori. Mandell - Fleming modelidagi "Daromad - valyuta kursi" koordinatalarida umumiy muvozanat. "Daromad - valyuta kursi" koordinatalarida rag'batlantiruvchi soliq-byudjet siyosati oqibatlari. Deval'vatsiyaning oqibatlari.

20-mavzu. Abadiy davomiylik va bir davrda yashayotgan avlodlar modeli

Modelning umumiy tavsifi. Omillar bozori. Barqaror muvozanat. Solou modelining o'xshash nusxasi. Mehnat va bilimning o'sish darajasi. Kapital jamg'arish. Raqobatlashuvchi firmalar. O'zgarmas uy xo'jaliklari soni. Infinite-horizon. Remsey. Kass. Kupmens. Ramsey-Cass-Koopmans modeli va Diamond modelining farqlari. Ijtimoiy ta'minot va kapital jamg'arish. Uzoq muddatli muvozanatga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat. Errou - Debro usuli. Iqtisodiyotga yangi uy xo'jaliklarining kirib kelishi. Uy xo'jaliklari va firmalarning xatti-harakatlari. Uy xo'jaliklarini maksimallashtirish muammosi. Iqtisodiyot dinamikasi. Balanslashgan o'sish yo'li. Ijtimoiy optimum.

21-mavzu. Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi muammolar

Faol va passiv makroiqtisodiy siyosat. Inflyatsiya va ishsizlikning qiyosiy xarajatlari. Iqtisodiyotning holati to'g'risida ma'lumotlarning nomuvofiqligi. Oqilona umidlar va Lukas tanqidi. Vaziyatlar yoki qoidalar bo'yicha siyosat. Iqtisodiy siyosatning dinamik nomuvofiqligi. Siyosiy tsikl masalalari. Dinamik yangi keynscha modellarning shakllanish bloklari. Oldindan belgilangan narxlar: Fisher modeli. Qayd etilgan narxlar: Teylor modeli. Davlatga bog'liq narxlar. Empirik dasturlar. Inflyatsiya inertsiasiyasi bilan narxlarni bosqichma-bosqich tuzatish modellari. Faol iqtisodiy siyosat. Passiv iqtisodiy siyosat. Iqtisodiy siyosatdagi bo'shliq (lag). Tashqi lag. Ichki lag. Dinamik nomuvofiqlik. Ish haqi va narxlarni boshqarish. Daromadlar siyosati.

22-mavzu. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda egzogen omillarning ta'siri

Yalpi ishlab chiqarishni doimiy o'sishini taminlashda pandemiyaning ta'sirini kamaytirish. Pandemiyaning ta'sirini kamaytirish maqsadida, Yalpi talabni rag'batlantirish.

Yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tartibga solishda pandemiyaning sharoitini kamaytirish.

Pandemiya sharoitida oqilona byudjet-soliq (fiskal) siyosatini olib borish. Pandemiya sharoitida Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Pandemiya sharoitida davlat xarajatlari multiplikatori. Pandemiya sharoitida soliqlarga ta'til berish va davlat xarajatlarini oshirilishi samarasi. Pandemiya sharoitida davlat byudjeti taqchilligi. Davlat qarzi o'sishining iqtisodiy oqibatlar: Pandemiya sharoitida O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ-huquqiy va strategik manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish" yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va "O'zbekiston - 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi PF-22-son Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasining "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-1105-son Qonuni. 2025-yil 25-dekabr.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2026-2028-yillar uchun budjet

mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari to'g'risida"gi PQ-388-son qarori. 2025-yil 26-dekabr.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 26-dekabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. O'zbekiston Respublikasining 2026-2028-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyasi. - Toshkent, 2025.

8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Budjetnoma - 2026. - Toshkent, 2025.

II. O'zbekiston bo'yicha rasmiy makroiqtisodiy va tahliliy manbalar

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2026-yil va 2027-2028-yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. - Toshkent, 2025.

10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2025-yil uchun hisoboti. - Toshkent, 2026.

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun moliyaviy barqarorlik sharhi. - Toshkent, 2026.

12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhlari. 2025-yil IV chorak va 2026-yil I chorak. - Toshkent, 2026.

13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul bozori va likvidlilik sharhlari. 2025-yil IV chorak va 2026-yil I chorak. - Toshkent, 2026.

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarzi: 2025-yil yakunlari. - Toshkent, 2026.

15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O'zbekiston Respublikasining to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarzi: 2026-yil I chorak. - Toshkent, 2026.

16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston raqamlarda - 2025. Statistika to'plam. - Toshkent, 2025.

17. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2025-yil yakunlari. - Toshkent, 2026.

18. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati: 2026-yil yanvar-iyun. - Toshkent, 2026.

III. Xalqaro tashkilotlarning O'zbekiston va jahon iqtisodiyoti bo'yicha hisobotlari

19. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation - Press Release; and Staff Report. IMF Country Report No. 2026/152. - Washington, DC: IMF, 2026.

20. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Staff Report for the 2026 Article IV Consultation - Debt Sustainability Analysis. - Washington, DC: IMF, 2026.

21. International Monetary Fund. World Economic Outlook: Global Economy in the Shadow of War. - Washington, DC: IMF, April 2026.

22. International Monetary Fund. Fiscal Monitor: Fiscal Policy under Pressure - High Debt, Rising Risks. - Washington, DC: IMF, April 2026.

23. International Monetary Fund. Global Financial Stability Report: Global Financial Markets Confront the War in the Middle East and Amplification Risks. - Washington, DC: IMF, April 2026.

24. World Bank. Uzbekistan - Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. - Washington, DC: World Bank, 2025.

25. World Bank. Macro Poverty Outlook for Uzbekistan. - Washington, DC: World Bank, April 2026.

26. Asian Development Bank. Asian Development Outlook April 2026: The Middle East Conflict Challenges Resilience in Asia and the Pacific. - Manila: ADB, 2026.

27. Asian Development Bank. Asian Development Outlook July 2026: A Fragile Outlook as Energy Market Disruptions Persist. - Manila: ADB, 2026.

28. European Bank for Reconstruction and Development. Regional Economic Prospects: Strai(gh)t Talk. - London: EBRD, June 2026.

IV. Asosiy zamonaviy darsliklar

29. Amirov L.F. Makroiqtisodiyot-2. Darslik. - Toshkent, 2021.

30. Asqarova M.T. Inklyuziv o'sish. Darslik. - Toshkent, 2024.

31. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot. Darslik. 4-nashr, qayta ishlangan. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2025. - 256 b.

32. Mankiw N.G. Macroeconomics. 12th ed. - Macmillan Learning, 2025.

33. Blanchard O., Amighini A., Giavazzi F. Macroeconomics. Global Edition. 9th ed. - Pearson, 2026.

34. Zorrilla O. Macroeconomics: An Active Learning Approach. - Cambridge, MA: The MIT Press, 2025.

35. McConnell C.R., Brue S.L., Flynn S.M., Barbiero T., Eslami K. Macroeconomics. 17th ed. - McGraw Hill, 2025.

V. Asosiy elektron axborot va statistik resurslar

33. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

34. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy axborot resurslari.

35. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy axborot va fiskal ma'lumotlar resurslari.

36. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik va tahliliy ma'lumotlar bazasi.

37. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistika ma'lumotlar bazasi.

38. International Monetary Fund - World Economic Outlook, International Financial Statistics va IMF Data bazalari.

39. World Bank - World Development Indicators va Uzbekistan Economic Update ma'lumotlar bazalari.

40. Asian Development Bank - Asian Development Outlook va ADB Data Library.

41. European Bank for Reconstruction and Development - Regional Economic Prospects va Transition Reports.